



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 658 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjialiyevena</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Saida Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
Сулейманова Нилуфар Камилловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munojatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafuz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda morfologik kompetentlikni shakllantirish	308
Ganiyeva Shodiya Azizovna	
Модель "4+1+1" как ключевой механизм в системе практической подготовки учителей музыки.....	313
Мухитдинова Малохатхон Саиджабборовна	
Tarbiya fanini o'qish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	317
Nazarova Nasiba Abdullayevna	
Tarbiyachining kasbiy psixologik xususiyatlari.....	320
Shamshetova Anjim Karamaddinovna	
Boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi va metodologiyasi	323
Bo'ronova Iroda Bo'ronovna	
Yosh dzyudochi qizlarning mashg'ulotlar jarayonida jismoniy tayyorgarligini oshirish texnologiyalari	327
Matmurotova Iroda Baxtiyor qizi	
"Odob us-solihin" asarida yoritilgan axloqiy-didaktik g'oyalar va uning pedagogik mazmuni.....	332
A. N. Nusratov	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik asoslari	336
Xolmatov Pardaboy Qoraboevich, Abdurasulova Dilnoza	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida loyihalashtirishning o'rni	342
<i>Abdusattorova Go'zalxon Abdulxabib qizi</i>	
Tibbiyot va frazeologiya inson omilida	346
<i>Achilov Muzaffar Norquliyevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda matematikaning ahamiyati	349
<i>Mamasaidova Muhabbat Abdulalom qizi, Akbaraliyeva Marjona Xurshid qizi</i>	
Ekoestetik kompetensiyani shakllantirishning xorijiy va milliy tajribalar tahlili	354
<i>Alijonova Maftuna Maxamadjon qizi</i>	
Pedagogik jarayonda talabalarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirish mexanizmlari	359
<i>Alikulova Muxayyo Sherovna</i>	
Ingliz ritsarlik romanlarining lingvopoetik tahlili	362
<i>Durdona Boychayeva, Aliyeva Elmira</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning pedagogik asoslari	365
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni mohiyati va tarkibiy tuzilmasi	369
<i>Axmadjonova Jasmira Jamshid qizi</i>	
Developing Writing Competence Among CEFR B1 and Ielts Learners Experiencing Difficulties in English Language Acquisition	374
<i>Ayturayev Majid Mavlankhanovich</i>	
Ta'lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning milliy qadriyatlarga asoslangan modeli	378
<i>Azamov Umarxon Yaxyoxonovich</i>	
Complications in Teaching Argumentative Speech to Students in Grades 8–9	383
<i>Buribayeva Aziza Ismatillaevna</i>	
Interfaol o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari	386
<i>Buriyeva Aziza Nematovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish	390
<i>Davronova Sevinch</i>	
O'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishda maqollardan foydalanish bo'yicha manbaalar tahlili	394
<i>Boltayeva Barno, Eliboyeva Surayyo Abdulkarim qizi</i>	
Social Roots and Psychological Consequences of Domestic Violence	399
<i>Dumarova Gulmira Kozimbekovna, Mamadaliyeva Gulmira, Sultonova Zulhayo</i>	
The Transversal-Methodical Competence of a Preschool Educator is the Foundation of Effective And Quality Education	402
<i>Ergasheva Barno Ziyavitdin kizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning innovatsion yo'llari	406
<i>Erkinova Mehriniso Ro'ziboyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish strategiyalari	411
<i>Eshonkulova Hilola Rajab qizi</i>	
Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning bilish faoliyatiga ta'siri	415
<i>Habibova Shyira Baxtiyorovna</i>	
Ruhiy rivojlanishi sustlashgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish	419
<i>Ikromova Sarvinoz Siroj qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda riskologik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	424
<i>Jabborova Dilafuz Furqatovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tili o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning psixologik asoslari	428
<i>Jurayeva Sug'diyona Shamsiddin qizi</i>	
Transforming Education: The Impact of Emerging Technologies on Modern Pedagogical Practices	431
<i>Kadirova Ferangiz Himmatillo qizi</i>	
Salomatlik etikasi konsepsiyasi va pedagogik madaniyat – talabalar ma'naviyati va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli	435
<i>Kamalova Yoqutxon Bahodirovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Tarbiyachilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish omillari 439 Kenjayeva Dildora Terkashevna
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati 443 Kistabayeva Gulchexra Djurakulovna	
Kichik maktab yoshi davrida o'quv faoliyati va o'quv motivlarining shakllanishi 448 Latifa Zarifovna Korayeva	
Maktabgacha ta'lim tizimining raqamlashtirilishi: xalqaro tajriba va istiqbollar 451 Mahmudova Zulfiya Homidovna, Hoshimova Dilnoza Boymirzoevna	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini dizayn tafakkurga o'rgatishda STEAM yondashuvining didaktik imkoniyatlari 454 Mamadaminova Munisa Maxmudjon qizi, Boboxonova Shodiyona Rustam qizi	
Tabiatni asrash – kelajakni asrash: Buxoro misolida 459 Mardonova Saodat Muzaffarovna	
Bo'lajak pedagoglarda o'z-o'zini baholash kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish 463 Meyliyeva Nafosat Gulomovna	
Sun'iy intellektning ta'limda kognitiv va metakognitiv jarayonlarga ta'siri 466 Murodov Ulug'bek O'tkir o'g'li	
Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning tashkil etilishi 470 Mustofoyeva Muhabbat Husniddin qizi	
The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress 473 Nargiza Khayrullayevna Ortikova, Laziz Azizovich Normuratov	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari 477 Ortiqov Akmaljon Abdusalom o'g'li	
CLIL metodining O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilishi 481 Qarshiyeva Sarvinoz Ural qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency 486 Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma'naviyatini oshirishda tasviriy san'atning o'rni 490 Quvonchbek Abduxamidov	
Axborot texnologiyalari ta'sirida san'at tushunchasining o'zgarishi 494 Rajabova Laylo O'tkir qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari 498 Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning pedagogik asoslari 501 Yusufzoda Shabnami Yunus, Rashidova Saida Ravshonbek qizi	
Axborot texnologiyalarini fizika darslarida qo'llash 506 Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
Axborot xavfsizligini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish afzalliklari 510 Raxmetova Lazzat	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarining o'ziga xosligi 513 S. A. Mamatisayeva	
Androgogik yondashuvning integrativ metodikasi 517 Sattorova Shaxlo Axadovna	
Gendered Language in Uzbek and English Media Discourse 520 Sultonova Charos Iskandar kizi	
Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarda ijtimoiy ekologik dunyoqarashni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar 527 Suyunova Matluba Abdusaidovna	
Empatiya shifokor–pasiyent munosabatida: tibbiyot talabalarining psixologik tayyorgarligi 531 Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi, Qurbonova Fotima Farhodjon qizi	
Modern Approaches to Teaching Grammar 534 Tuychiyev Azamat Farkhod ugli	
The Importance of Psychological Preparation of Preschool Children for School Education 538 Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li	



Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	541
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
Imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar faoliyatida universal ta'limning imkoniyati	544
<i>Xolmatova Sarvinoz Raxmatilla qizi</i>	
Kurashchilarning umumiy va maxsus sport tayyorgarliklari.....	548
<i>Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li</i>	
Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida ekologik kompetentlik tushunchalarini rivojlantirish bosqichlari.....	551
<i>Yarova Gulhayo Fazliddin qizi</i>	
Arxitektura va dizayn yo'nalishi bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish vositasida axborot almashish jarayonlarini optimallashtirish metodikasini takomillashtirish.....	555
<i>Kuchimov M. K.</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	559
<i>Quldashev Murodjon G'aniyevich</i>	
Лингвистическое исследование влияния социальных сетей на синтаксические изменения в языке современного поколения.....	562
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining nutq madaniyati.....	566
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Gulimbayeva Barno</i>	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе “школа–махаля” в Узбекистане ...	570
<i>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</i>	
Mantiqiy masalalarni bajarishning metodik usullari	575
<i>Tosheva Yulduz</i>	
Bo'lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik-psixologik omillar (jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari misolida)	579
<i>Yarmatov Akbar Normurotovich</i>	
Yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda muloqot madaniyatini samarali shakllantirish muammosining xorijiy tadqiqotlardagi talqini	582
<i>Matyakubov Elyor Rajapovich</i>	
Umumiy pedagogika fanini o'qitishda formativ baholash metodikasini joriy etish texnologiyasi	586
<i>Sobitjon Xalimov Hoshimjonovich</i>	
Формирование компонентов эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста с дефектами речи на основе сказкотерапии	590
<i>Эркинова Фазилат Миразиз қизи</i>	
O'zbekistonda asalarichilikning rivojlanishi.....	593
<i>Abdullayeva Maxsudaxon To'lanovna</i>	
14–16 yoshli dzyudochilarda hujum kombinatsiyalari va ularni musobaqaviy sharoitda qo'llash usullarini takomillashtirish.....	596
<i>Abduraxmanova Iroda Xayrullayevna</i>	
Oliy ta'limda aksiologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoiy ehtiyoj va pedagogik muammo sifatida.....	602
<i>B. S. Siddikov</i>	
Sport mashg'ulotlar davomida mushak va suyak tizimi rivojlanishi	606
<i>Bo'ronova Habiba Erkin qizi</i>	
Stol tennis o'yini texnikasi.....	609
<i>Ibragimov Abduqahhor Abdulaziz o'g'li</i>	
Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy platformalarning afzalliklari: Wordwall, Educaplay, Blooket, Genially, Kahoot platformalari	613
<i>Kalandarova Dilnoza Samandarovna, Qodirova Madina Nosirovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan paraarmrestlingchi talabalarni musobaqa oldidan texnik tayyorgarligini takomillashtirish	617
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Developing Critical Reading Skills Through Content-Based Instruction.....	621
<i>Mekhmonkulov Burkhon Ma'ruf ugli</i>	
Tog'li va shahar hududida ta'lim oluvchi tinglovchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini taqqoslash	626
<i>Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich</i>	



Korxonalar va tashkilotlarda ishchi-xodimlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish asosida ish faolligini oshirish texnologiyasi	630
Muxametov Axmad Muxametovich	
Xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining xalqaro baholash tizimini O'zbekiston ta'limiga moslashtirishdagi o'rni ...	634
Namazova Manzura Urakovna, Nodirov Dilmurod	
Digital Reading vs. Print Reading: Effects on EFL Learners' Reading Speed and Understanding	639
Rustambekova Ozoda Dilshod kizi	
Yoshlarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini oshirishning samarali usullari	644
To'rayev Farrux Hakim o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-qizlarni dzyudo sport turi texnik harakatlariga o'rgatish texnologiyasi	647
Toshboyeva Munisa Bozor qizi	
Sport mashg'ulotlarda jarohatlarning oldini olish va xavfsizlik choralarini	650
Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
Ахмедов Нумон	

OLIV TA'LIMDA AKSIOLOGIK TARBIYA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH IJTIMOIY EHTIYOJ VA PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

B. S. Siddikov

Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrasii
v.b.professori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida aksiologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati hamda pedagogik muammo sifatidagi mohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Talabalarda qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish va ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil etishning dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda oliy ta'limda aksiologik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan tashkiliy, metodik va psixologik mexanizmlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: aksiologik tarbiya, oliy ta'lim, qadriyat, shaxs kamoloti, pedagogik jarayon, ijtimoiy ehtiyoj, ma'naviy rivojlanish.

Abstract: This article scientifically analyzes the social necessity and pedagogical nature of improving the mechanisms of axiological education in the higher education system. The importance of developing a value-based worldview and organizing moral and ethical education through modern pedagogical approaches is substantiated. Moreover, the article highlights the organizational, methodological, and psychological mechanisms required for the effective implementation of axiological education in modern higher education settings.

Key words: axiological education, higher education, values, personal development, pedagogical process, social demand, moral development.

Аннотация: В статье научно анализируются социальная необходимость и педагогическая сущность совершенствования механизмов аксиологического воспитания в системе высшего образования. Обоснована актуальность формирования у студентов ценностно-ориентированного мировоззрения и духовно-нравственного воспитания на основе современных педагогических подходов. Также раскрываются организационные, методические и психологические механизмы, необходимые для эффективной реализации аксиологического воспитания в условиях высшей школы.

Ключевые слова: аксиологическое воспитание, высшее образование, ценности, личностное развитие, педагогический процесс, социальная потребность, духовное совершенствование.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimining maqsadi nafaqat kasbiy kompetensiyaga ega kadrlarni tayyorlash, balki ma'naviy barkamol, insoniy qadriyatlarga sodiq va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Shu bois, oliy ta'lim tizimida aksiologik tarbiya – ya'ni shaxsni qadriyatlarga asoslangan ong, e'tiqod, axloqiy pozitsiya va ijtimoiy faoliyat orqali shakllantirish jarayoni – dolzarb ilmiy va amaliy yo'nalishga aylanmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya va ma'naviy pluralizm sharoitida yoshlarda qadriyatlar tizimi beqaror holatga kelmoqda. Natijada ayrim talabalar orasida iste'molchilik, individualizm, befarqlik va axloqiy relativizm kuchaymoqda. Bu holat oliy ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya mazmunini qayta ko'rib chiqishni, uni aksiologik yondashuv asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Aksiologik tarbiya jamiyat taraqqiyotining poydevori bo'lgan qadriyatlarni anglash va ularni shaxsiy hayot hamda kasbiy faoliyatda tatbiq etish imkonini beradi. Bu jarayonning samaradorligi o'qituvchilarning aksiologik tayyorgarligi, o'quv jarayonida qadriyatli yondashuvni amalga oshirish darajasi hamda ijtimoiy muhitning ta'siri bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida¹ ham aksiologik tarbiya masalasi milliy

1 <https://lex.uz/uz/docs/-5085887>



ta'lim siyosatining markaziy yo'nalishiga aylangani ta'kidlanadi. Shu sababli, oliy ta'limda aksiologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoiy ehtiyoj sifatida zarur, pedagogik muammo sifatida esa yechimi talab etilayotgan masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim tizimida aksiologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni kompleks ilmiy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotda aksiologik, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan metodologik asoslar o'zaro uyg'unlashtirildi. Quyida har bir metod alohida tahlil qilinadi: Nazariy-tahliliy metod – ushbu usul tadqiqotning konseptual negizini tashkil etadi. U orqali aksiologik tarbiya tushunchasining falsafiy, pedagogik va psixologik mohiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Aksiologiya fanining asosiy tamoyillari hamda “qadriyat” kategoriyasining mohiyati I. Kant, M. Shvarts, A. Maslou va V. Frankl asarlariga tayanib o'rganildi.

Pedagogik aksiologiya yo'nalishida ishlagan mahalliy olimlar – M. Norboyeva, K. Yo'ldoshev, G. Toshpo'latova va boshqalarning tadqiqotlari tahlil qilinib, ularning oliy ta'limdagi tatbiq imkoniyatlari baholandi. Oliy ta'lim to'g'risidagi qonunlar, davlat ta'lim standartlari hamda “Yangi O'zbekiston – ma'naviyatli jamiyat” konsepsiyasi kabi me'yoriy hujjatlar o'rganilib, ularda aksiologik yondashuvning ifodalanish darajasi aniqlashtirildi. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida qadriyatlarga asoslangan ta'lim masalasi ko'tarilgan bo'lsa-da, uni amaliy jihatdan joriy etish mexanizmlari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli aksiologik tarbiya metodikasini tizimlashtirish ilmiy zarurat sifatida asoslanadi.

Tadqiqotning empirik bosqichi esa oliy ta'lim tizimida aksiologik tarbiya jarayonining amaldagi holatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va takomillashtirish imkoniyatlarini ilmiy asosda belgilashga qaratilgan. Ushbu bosqichda turli oliy ta'lim muassasalari misolida o'quv jarayonining qadriyatlarga yo'naltirilganlik darajasi, talabalarning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi hamda o'qituvchilarning aksiologik kompetentligini aniqlashga xizmat qiluvchi bir qator empirik metodlar qo'llanildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Empirik tadqiqot quyidagi metodlar majmuasidan iborat bo'ldi: so'rovnoma, intervyu va kuzatuv. Ularning har biri aksiologik tarbiya jarayonining turli jihatlarini o'rganishga qaratildi. So'rovnoma metodi orqali talabalarning qadriyatlar haqidagi bilim, munosabat va xulq-atvor ko'rsatkichlari o'rganildi. So'rov varaqalari anonim tarzda tarqatildi, bu esa ishtirokchilarning fikrlarini erkin ifoda etishiga imkon berdi. So'rovnoma savollari shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan munosabat, o'quv jarayonida ma'naviy-axloqiy g'oyalar ifodasi, o'qituvchilarning qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyat uslublari hamda jamiyatdagi dolzarb axloqiy masalalarga talabalarning refleksiv qarashlarini qamrab oldi. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlar qadriyatlar haqida nazariy bilimga ega bo'lsalar-da, ularni amaliy hayotda namoyon etish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa aksiologik tarbiyani ta'lim mazmuni bilan uzviy bog'lash zarurligini ko'rsatadi. Intervyu metodi doirasida professor-o'qituvchilar, pedagogik yo'nalishdagi mutaxassislar va ta'lim tizimi xodimlari bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazildi.

Intervyular yarim strukturaviy shaklda olib borildi, bu esa suhbatdoshlarning shaxsiy tajribasi va qarashlarini batafsil yoritish imkonini berdi. Suhbatlar o'qituvchilarning aksiologik yondashuvdan xabardorlik darajasi, dars jarayonida qadriyatli mavzularni integratsiyalash amaliyoti, talabalarda ma'naviy yetuklikni shakllantirishda duch kelinayotgan metodik muammolar hamda ta'lim muassasasida mavjud qadriyatlar muhitining o'qituvchi faoliyatiga ta'sirini o'z ichiga oldi. Intervyu tahlili natijasida o'qituvchilarning ko'pchiligi aksiologik tarbiyaning zarurligini chuqur anglashlarini, ammo bu borada tizimli metodik qo'llanmalarning va amaliy tajriba almashish mexanizmlarining yetishmasligini qayd etdilar. Shuningdek, o'qituvchilarning shaxsiy qadriyatlar tizimi ularning ta'limdagi yondashuvlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Kuzatuv metodi tadqiqot jarayonining eng muhim amaliy bosqichlaridan biri bo'lib, u o'qitish va tarbiya jarayonining tabiiy sharoitdagi holatini bevosita tahlil qilish imkonini berdi.

Kuzatuv davomida dars jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot madaniyati, qadriyatlarga yo'naltirilgan interfaol usullardan foydalanish darajasi, ma'naviy-axloqiy mavzularni dars mazmuni bilan uyg'unlashtirish holati hamda baholash jarayonida axloqiy mas'uliyat elementlarining mavjudligiga e'tibor qaratildi. Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'plab mashg'ulotlarda o'qituvchilar nazariy bilimlarni yetkazishga e'tibor qaratgan bo'lsalar-da, qadriyatli yondashuv asosida tashkil etilgan muloqot, refleksiya va muhokama elementlari yetarli darajada amalga oshirilmayapti. Shu sababli, dars jarayonida talabalarning qadriyatli fikrlashini rag'batlantiruvchi, ularni ma'naviy qaror qabul qilishga yo'naltiruvchi metodlar tizimini kuchaytirish zarurligi aniqlandi.

Olingan empirik ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, umumlashtirilgan ilmiy xulosalar chiqarildi. Miqdoriy tahlil orqali aksiologik tarbiya holatining o'rtacha darajasi, subyektlarning qadriyatga nisbatan

faollik ko'rsatkichlari va motivatsion omillar baholandi, sifat tahlili esa respondentlarning shaxsiy fikrlari, hayotiy tajribasi va qadriyatli qarashlaridagi farqlarni aniqlashga xizmat qildi. Umuman olganda, empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'limda aksiologik tarbiya jarayoni mavjud bo'lsa-da, u ko'proq deklarativ tusda kechmoqda. Uning samaradorligini ta'minlash uchun ta'lim mazmunini qadriyatli komponentlar bilan boyitish, o'qituvchilarning aksiologik tayyorgarligini oshirish hamda ta'lim muassasalarida ma'naviy muhitni mustahkamlash zarurligi ilmiy asosda aniqlashtirildi. Mazkur tadqiqot bosqichi oliy ta'lim tizimida aksiologik tarbiya amaliyotining real holatini ko'rsatib berdi, olingan natijalar asosida aksiologik tarbiyani takomillashtirishga doir metodik, tashkiliy va psixologik yo'nalishlarda ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida aksiologik tarbiya mexanizmlarining hozirgi holati, mavjud muammolari hamda ularni takomillashtirish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. O'tkazilgan nazariy va empirik tadqiqotlar asosida quyidagi asosiy ilmiy natijalarga erishildi: aksiologik tarbiya jarayonining mavjud holati aniqlab olindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim tizimida qadriyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosan umumiy tarbiyaviy ishlar doirasida amalga oshirilmoqda, biroq ularni o'quv jarayoniga tizimli integratsiya qilish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Ko'plab o'qituvchilar aksiologik tarbiyani nazariy tushuncha sifatida bilsalar-da, uni o'z dars amaliyotlarida maqsadli yo'nalish sifatida qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Natijada, ta'lim jarayonida qadriyatlar ko'proq deklarativ tarzda aks etmoqda, talabalar esa ularni hayotiy faoliyatda qo'llay olish kompetensiyasiga yetarli darajada ega emaslar. Talabalarning aksiologik savodxonlik va qadriyatga yo'naltirilganlik darajasi baholandi.

Empirik ma'lumotlarga ko'ra, talabalar qadriyatlar haqida umumiy tushunchaga ega, lekin ularni anglash va amalda qo'llash o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Aniqlanganidek:

- talabalar shaxsiy qadriyatlar (mehr-oqibat, halollik, hurmat, mehnatsevarlik)ni muhim deb biladilar, biroq ularni kasbiy faoliyatda qanday namoyon etish mexanizmlarini yetarlicha tasavvur qilmaydilar;
- aksiologik refleksiya – ya'ni o'z qadriyatlarini tahlil qilish va ularni boshqalar qadriyatlari bilan solishtira olish qobiliyati – ko'pchilikda shakllanish bosqichida;
- talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini anglash borasida ijobiy tendensiyalar mavjud, lekin ularni mustaqil faoliyat orqali rivojlantirish imkoniyatlari cheklangan.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida aksiologik tarbiyani shunchaki ma'ruzalar yoki tarbiyaviy tadbirlar darajasida emas, balki shaxsiy o'zini anglash va faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarur.

O'qituvchilarning aksiologik kompetentligini aniqlash natijalariga ko'ra, ko'plab professor-o'qituvchilar aksiologik tarbiya jarayonining nazariy mohiyatini yaxshi bilsalar-da, uni amaliyotda tatbiq etish bo'yicha metodik bazaga ega emaslar. O'qituvchilarning bir qismi qadriyatlarga yo'naltirilgan o'quv texnologiyalarini (muammoli ta'lim, refleksiv suhbat, axloqiy dilemmalar, ijtimoiy loyihalar) yetarlicha qo'llamaydi, dars jarayonida talabalarning qadriyatlarga nisbatan munosabatini shakllantirishdan ko'ra, akademik bilimni egallash ustuvor hisoblanadi, baholash mezonlarida ham ma'naviy-axloqiy o'sish yoki qadriyatli refleksiya natijalari deyarli inobatga olinmaydi. Natijada, aksiologik kompetentlik – ya'ni o'qituvchining shaxsiy qadriyat tizimi, refleksiv fikrlash va pedagogik faoliyatda qadriyatlarga asoslangan yondashuvi – nisbatan past darajada namoyon bo'lmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida aksiologik tarbiya samaradorligini belgilovchi muhit omillari ham o'rganildi. Aniqlanishicha, ta'lim muassasasining ichki qadriyat tizimi (akademik madaniyat, o'zaro hurmat, jamoaviylik, halollik) turlicha darajada shakllangan, qadriyatlar siyosati ko'pincha rasmiy konsepsiyalar darajasida qolib, ularning amaliy tatbiqi yetarli darajada monitoring qilinmaydi, talabalar bilan ishlashda tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik xizmatlar faoliyati ko'proq tashkiliy shaklda olib boriladi, ammo individual qadriyatni anglash jarayoniga yo'naltirilmagan. Shunday qilib, institutsional mexanizmlar – ya'ni oliy ta'lim muassasasining qadriyatli muhit yaratishdagi tashkiliy va madaniy omillari – aksariyat hollarda tizimlashtirilmagan. Tadqiqot natijalari asosida aksiologik tarbiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan konseptual model taklif etildi.

Mazkur model uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- nazariy-asosiy yo'nalish – qadriyatlarning pedagogik talqinini, aksiologik yondashuv tamoyillarini aniqlash va ularni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish;
- metodik yo'nalish – qadriyatga yo'naltirilgan dars shakllarini ishlab chiqish (refleksiv suhbatlar, loyihaviy topshiriqlar, axloqiy muhokamalar, simulyatsiyalar);
- institutsional yo'nalish – ta'lim muassasasida qadriyatlar tizimini mustahkamlovchi tashkiliy va madaniy muhitni yaratish (axloqiy kodeks, qadriyatli yetakchilik, talaba-o'qituvchi muloqot madaniyati).



Mazkur model aksiologik tarbiyani yagona tizim sifatida ko'rishga, ya'ni nazariya, amaliyot va ijtimoiy muhit o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashga imkon beradi. Olingan natijalar oliy ta'lim tizimida aksiologik yondashuvni keng tatbiq etish uchun zarur ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ular asosida o'qituvchilar uchun "Aksiologik kompetentlikni rivojlantirish" nomli trening-modullar ishlab chiqish taklif etildi, talabalar uchun esa "Qadriyatli refleksiya kundaligi" shaklidagi o'quv-metodik vosita yaratish g'oyasi ilgari surildi, ta'lim muassasalari miqyosida aksiologik monitoring va qadriyatli baholash tizimini joriy etish zarurati asoslab berildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, agar aksiologik tarbiya ta'limning barcha bosqichlariga maqsadli va tizimli integratsiya qilinsa, bu shaxsning nafaqat kasbiy, balki ma'naviy barkamolligini ta'minlaydi. Olingan natijalar oliy ta'lim tizimida aksiologik tarbiya mexanizmlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi:

- pedagogik yondashuvlarni yangilash – aksiologik tarbiya jarayonida shunchaki ma'naviy tushunchalarni o'rgatish emas, balki talabalarni ularni amalda qo'llashga, shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga o'rgatish zarur. Masalan, muammoli vaziyatlar tahlili, hayotiy keyslar va refleksiv yozuvlar orqali talaba qadriyatlarini his etadi va ularni baholay boshlaydi;
- aksiologik muhit yaratish – universitetlarda madaniy-ma'naviy muhitni kuchaytirish, "Qadriyatlar haftaligi" va "Ma'naviy muloqot klublari" kabi ijtimoiy loyihalarni joriy etish talabalar tafakkuriga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'qituvchilarning aksiologik kompetentligini rivojlantirish – har bir pedagog o'z darsida faqat ilmiy bilimni emas, balki insoniy fazilatlarini ham singdiruvchi shaxs bo'lishi lozim, shu bois o'qituvchilar uchun "Aksiologik pedagogika" bo'yicha malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish zarur;
- baholash tizimini modernizatsiya qilish – talabaning nafaqat bilimini, balki qadriyatlarga asoslangan fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va hamkorlik qobiliyatini baholovchi mezonlarni ishlab chiqish zarur.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreyada ta'lim jarayonida qadriyatlarga asoslangan o'qitish tizimi ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tajriba O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga ham moslashtirilishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim tizimida aksiologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish jamiyatning ma'naviy barqarorligi va insonparvarlik tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi, talabalarda shaxsiy mas'uliyat, halollik, bag'rikenglik, milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantiradi hamda pedagogik faoliyatni inson markaziga yo'naltirishga asos yaratadi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida aksiologik tarbiya tizimini takomillashtirish ijtimoiy ehtiyoj sifatida davlat siyosatida alohida o'rin tutmog'i lozim. U nafaqat ta'lim sifati, balki kelajak avlodning ma'naviy qiyofasini belgilovchi strategik yo'nalishdir. Kelgusida bu borada o'qituvchilar uchun aksiologik tayyorgarlik dasturlari, talabalar uchun qadriyatga yo'naltirilgan ijtimoiy loyihalar hamda monitoring tizimlarini joriy etish dolzarb vazifa sifatida qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dewey, J. (1916). *Democracy and Education*. New York: Macmillan.
2. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. *Psychological Review*, 50(4), 370–396.
3. Schwartz, S. H. (2012). An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values. *Online Readings in Psychology and Culture*, 2(1), 1–20.
4. Frankl, V. E. (1946). *Man's Search for Meaning*. Boston: Beacon Press.
5. Norboyeva, M. (2018). Oliy ta'limda aksiologik tarbiya: nazariy va amaliy masalalar. *Toshkent Pedagogika Universiteti Ilmiy Axborotnomasi*, 5, 22–35.
6. Shchekin, G. (2016). Pedagogical Axiological Approaches in Higher Education. *Journal of Education and Culture*, 12(3), 45–58.
7. Toshpo'latova, G. (2019). Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish metodikasi. *O'zbekiston Pedagogika Jurnal*, 4, 10–18.
8. Yo'ldoshev, K. (2020). Aksiologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari. Toshkent: Akademiya nashriyoti.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017). *Yangi O'zbekiston – ma'naviyatli jamiyat konsepsiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Matbuot xizmati.
10. UNESCO. (2015). *Rethinking Education: Towards a Global Common Good?* Paris: UNESCO Publishing.
11. Finlyandiya Milliy Ta'lim Qo'mitasi. (2018). *Values-Based Education in Finnish Schools*. Helsinki: FNBE.
12. South Korea Ministry of Education. (2019). *Global Citizenship Education Guidelines*. Seoul: MoE Publications.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.